

O'QUVCHILARNI O'QUV FAOLIYATI, BILIM VA KOMPETINSIYALARINI BAHOLASHNING TURLI USUL VA VOSITALARI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti “Boshlang’ich ta’lim nazariya “

Kafedra o’qituvchisi **Rayimova Dilfuza
Abdinabiyevna**

Annotatsiya: O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari ; Rasmiy va norasmiy, diagnostik va umumiy yondashuvga asoslangan baholash .Maqolada darsning zamonaviy usullari va texnologiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.Zamonaviy usullarning mohiyati, darslarda turli usullarni qo'llanilishining ahamiyatli tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Dars texnologiyalari ,usullari ,ta'lim, o'qitish,o'quv jarayoni

Dars jarayonlarida yangi pedagogic texnologiyalari va usullaridan foydalanish zamonaviy maktab ta'limining dolzarb muammosidir.Bugungi kunda barcha fanlar bo'yichahar bir o'qituvchi axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda da rsolib borishi zarur. Zamonaviy o'qituvchi sifatli ta'lim olish huquqlarini ta'minlash uchun yangi o'quv qurollari bilan ishlay olishi kerak

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maktabning zamonaviy talablariga javob beradi. Ta'lim texnologiyalari,masalan axborot -kom-munikatsiya texnologiyalari sababli yoshlarni kelajakdagi hayotida muvafaqqiyatli moslashish va o'zini o'zi anglashuchun asos bo'ladi. Zamonaviy o'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobliyatlarini rivojlantirishda o'z- o'zini rivojlantirish va tarbiyalash ko'nikmalarni shakillantirishga yordam beradigan yangi va samarali texnologiyalarni izlashsiz tassavur qilib bo'lmaydi.

Umumiy ta'lim maktabining asosiy maqsadi o'qitishning turli usullaridan foydalangan holda shaxsning har tomonlama aqliy, axloqiy, vajijsmoniy rivojlanishiga hissa qo'shishdir. O'qitish usulijudamurakkabtushunchadir. Hozirgi kunda bu muammo bilan shug'ullanuvchi olimlar pedagogic jarayonning mohiyatini umumiy tushinish va izohlashga kelishmagan. Bu muammoga yetarlicha e'tibor berilganiga qaramasdan, haligacha kamchiliklar mavjud. O'qitish usullaridan quyidagicha xulosani chiqarish mumkin

1. Har qanday yagona usul kerakli bo'lgan natijalarni to'liq ta'minlay olmaydi.
2. Yaxshi natijalarga faqat turli usullar bilan erishish mumkin.
3. Tizimni tashkil etuvchi bir- birini to'ldiruvchi usullarni qo'llash orqali eng katta yutuqqa erishish mumkin.

Har qanday usul o'quv jarayonida qo'llaniladi yoki turli harakatlar dasturli usullar mavjud (usullar faqatgina ta'limga tegishli emas). Aqliy mehnatni O'quv jarayoni bolada bilimga bo'lgan aqliy mehnatni uyg'otish lozim. Butun o'quv jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan qo'llaniladigan usullarni tanlashga bog'liq. O'qitish usulini o'qituvchi tanlaydi. Bunda o'qituvchi bir qator talablarga amal qilish lozim.¹O'qitish usuli- bu o'qituvchi va o'quvchilarning berilgan o'quv maqsadiga erishishga qaratilgan tartibli faoliyatdir. O'qitish usullari deganda ko'pincha maqsadlarga erishish, ta'lim muammolarini hal qilish usullari majmui tushuniladi. Pedagogika adabiyotlarda metod tushunchasi ba'zan faqat o'qituvchi faoliyati yoki o'quvchilar faoliyati haqida ham yuritiladi. Birinchi holda,

o'qitish usullari haqida gapirish o'rinlidir. Agar o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi ishi haqida gapiradigan bo'lsak, buyerda, shubhasiz, o'qitish usullari nomoyon bo'ladi.

¹Boyqobilova, Nilufar Uzaqovna. "THE THEORY OF THE SELF-ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS' EDUCATIONAL ACTIVITIES IS BASED ON A SYNERGISTIC APPROACH." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal* 5.03 (2024): 101-110.

Usul bevosita mashg'ulotning maqsad va vazifalariga bog'liq . Usullar ,birinchi navbatda o'qitish va o'qitish usullarining samaradorligi bilan belgilanadi. Umuman olganda usul texnikalar tizimi deb ataladi, uning yordamida ma'lum bir jarayonni bajarishda u yoki bu maqsadga erishiladi.

Zamonaviy metodlar o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatiga , ularning bilm, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida bevosita va faol ishtirok etishga, ularni amalda qo'llashiga asoslanadi. O'zaro ta'sirning faol muhitini ta'minlovchi metod interaktiv (interfaol) deb ataladi. Barcha zamonaviy metodlar o'quvchilarni dars jarayonida faollashtiradi va bu o'z navbatida o'quvchilarning ta'limini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

O'qituvchilar tomonidan ko'plab metodik usullar ,innovatsiyalar, darslarning turli shakllarini o'tkazishga innovatsion yondashuvlar ishlabchiqilgan. Jumladan:

- O'yin shakllari:
- Guruh bo'lib ishlash:
- Juftlik va individual ishlarni tashkil etish :
- O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish:
- Aniq vaziyatlarniyaratish, ularnitahlil qilish:

O'tkazish shakliga ko'ra ,noan'anaviy darslarning quyidagi guruhlarini qo'llagan holda darslarni tashkil etishni tavsiya qilamiz:

1. O'quv materialini noan'anaviy tashkil etishga asoslangan darslar:
2. Muloqatning ommaviy shakllarini eslatuvchi darslar: matbuot anjumani , tartibga solinadigan muhokama, reportaj,
3. Musobaqa va o'yinlar ko'rinishidagi darslar: musobaqa, estafeta , rollo'yin, krossvord, viktorina;

4. Fantaziyaga asoslangan darslar: ertakdarsi ,kutilmagan dars
5. Dars doirasida olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarning an'anaviy shakillari : ertak, tekshiruv, spektakl;
6. Integratsiyalashgan darslar.

Ushbu usullardan foydalangan holda darslarni tashkil qilish o'qituvchilarga katta ma'suliyat yuklaydi. Chunki bu usullardan foydalanish uchun o'qituvchi tinmay mehnat qilishi lozim bo'ladi. Har bir turli usullardan foydalanish uchun turli tayyorgarlikni talab qiladi. Bu usullar o'quvchilarni nafaqat faollashtiradi, balki fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda fan yuzasidan bilimni chuqur egallashga olib keladi. Masalan:

-O'qitish sifatini yaxshilaydi;

-O'quv g'ayrati va muvaffaqiyati uchun motivatsiyani oshiradi;

-Dars vaqtini oqilona taqsimlashga imkon beradi;

-Materialni aniq tushuntirishga , uni qiziqarli qilishga yordam beradi;

-Darslarni yangi tarkib va atrofdagi dunyoga, o'quvchilarning qiziquvchanligiga ijodiy yondashuvini rivojlantiriradi;

O'quvchilarning kompetensiyalarini baholash natijalarini tahlil qilishda nimalarga etibor qaratishimiz kerakligi, Milliy o'quv dasturi bo'yicha formativ va summativ baholashning mazmuni haqida to'xtaladigan bo'lsak

Ta'limda baholash — bu ta'limdagi turli darajadagi yutuqlar uchun standartlashtirilgan o'lchovlarni qo'llash jarayoni. Milliyo'quv dasturi asosidafanlarchiziqilitartibdaemas, spiralsimontarzdao'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda

Soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan.

Milliy o'quv dasturi asosida baholash ta'limiy maqsadlarga qaydarajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi. Dastur bo'yicha formativ va summativ baholashning chegaralari aniqlab berilgan.

Shakllantiruvchi (formativ) baholash (o'rganishuchunbaholash):

- Uyga berilgan vazifalar;
- Dars paytida beriladigan topshiriqlar;
- Savol-javob;
- Dars paytida o'tkaziladigan nazorat ishlari;
- O'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish.
- Samarali qo'llanilganda, formativ baholash o'quvchilarning bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi va o'quvchilarga:
 - ularning rivojlanishini nazorat qilish;
 - o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash;
 - rivojlanish bo'yicha harakatlar rejalarini tuzish imkoniyatini beradi.

Shakllantiruvchi baholash norasmiy, o'qitish jarayoniga o'zgartirish kiritish imkonini beradi, qayta aloqa mavjud. Xulosalovchi (summativ) baholash – ta'lim dasturi yoki uning bir qismi so'ngida erishilgan natijani rasmiy baholash.

Xulosalovchi (summativ) baholash:

- baho berish:
- ta'lim oluvchiga baho berish,
- ta'lim beruvchiga baho berish.
- tanlash:

- belgilangantalabgajavobberadiganlarnitanlash,

O'quvchilarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

-joriy nazorat — so'rovlar, nazorat ishlari yoki testlar tarzida o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalari muntazam nazorat qilinadi;

-oraliq nazorat — chorak tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini baholash uchun amalga oshiriladi. U yozma nazorat ishi yoki testlar shaklida o'tkaziladi. Ushbu nazoratda foydalaniladigan materiallar o'quv fani o'qituvchisi tomonidan tayyorlanadi.

-Oraliq nazoratda nazorat ishlarining miqdori va mavzulari o'quv dasturiga asoslangan mavzuviy rejada belgilanadi hamda muddati va shakli ko'rsatiladi;

-Nazorat ishlari materiallari namunalariga ijodiy yondashgan holda o'quv fani o'qituvchilari bosqichli nazorat materiallariga o'zgartirishlar kiritishi va ularni uslubiy birlashmalar muhokamasidan o'tkazib, joriy etishlari mumkin.

Har bir nazorat turi qanday shaklda o'tkazilishidan qat'i nazar, besh ballik («5», «4», «3», «2», «1») usulda butun sonlar yordamida baholanadi.

-O'quvchilarning nazorat turlari bo'yicha olgan ballari hamda choraklik (yarim yillik) va yillik (yakuniy) baholari, shuningdek, yillik reyting ko'rsatkich ballari sinf jurnaliga qayd etiladi.

-O'quvchining choraklik (yarim yillik), yillik (yakuniy) baholari va yillik reyting ko'rsatkich ballari uning tabelida qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarorida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, xalqaro tadqiqotlar doirasida reyting bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Podlasy I.P. "Pedagogika: 100 savol 100javob: darslik. Universitetlaruchundarslik: Vlados-press, 2004
2. <https://lex.uz/docs/-5013007>
- 3.Mirziyoyev Sh.M."Buyukkelajagimiznimardvaolijanobxalqimizbilanbirga quramiz".Toshkent."O'zbekiston".2017.
4. ZimnyayaI.A..-M.: Педагогическая психология"Logos",2002.
5. Pedagogika. Munavvartahririostida,-T:"O'qituvchi",1996.
6. G'ulomov S.S. Ta'limtizimigaaxborot-kommunikatsiyatexnologiyalarinikengjoriyetishdagistrategikvaustuvoryo'nalishlari.- T.:2003.

7. Ne'matov, Oybek. "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI." *"Science Shine" International scientific journal* 3.3 (2023).
8. Boyqobilova, Nilufar Uzaqovna. "THE THEORY OF THE SELF-ORGANIZATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS' EDUCATIONAL ACTIVITIES IS BASED ON A SYNERGISTIC APPROACH." *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal* 5.03 (2024): 101-110.
9. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." *TADQIQOTLAR* 31.4 (2024): 3-6.
10. Amirova, G. "Why Is Reading Important?." *Proceedings of The ICECRS* 4 (2019).
11. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." *TADQIQOTLAR* 31.4 (2024): 3-6.
12. Boyqobilova, Nilufar. "SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI BOSHQARUV JARAYONIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH (BOSHLANG 'ICH TA'LIM)." *GOLDEN BRAIN* 1.33 (2023): 85-88.
13. [XALQARO BAHOLASH TURLARI](https://xalqaro-baholash-turlari.ag) AG Rashitovna Ustozlar uchun 3 (pedagoglar.org), 258-261
14. Rayimova Dilduza Abdinabiyevna. Assertivpozitsiyani rivojlantirish jarayonining psixologik pedagogik, didaktik jihatlari 124-130: 2025yi. International conference on modern science and scientific studies
15. Amirova, G. "Why Is Reading Important?." *Proceedings of The ICECRS* 4 (2019).
- Amirova, Gulnoza Rashitovna. "BARKAMOL SHAXS TARBIYASI." *GOLDEN BRAIN* 1.33 (2023): 118-120.

16. Kamalova, DilobarTairovna. "PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONGUENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI." *RESEARCH AND EDUCATION* 2.10 (2023): 272-275.
17. Olimov, ShirinboySharofovich, and KhusniddinKupayinovichKhomidov. "Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth." *The American Journal of Social Science and Education Innovations* 2.12 (2020): 132-136.
18. Solieva, Zarina, and Gulnoza Amirova. "The role of games for teaching children." *Bridge to science: research works* (2019): 88.
19. Amirova, Gulnoza. "The benefits of using modern technologies for learning foreign languages." *Proceedings of The ICECRS* 4 (2019).
20. Amirova, Gulnoza. "Approaches of Teaching to Read." *JournalNX*: 167-171.
21. Болтаева, ЗулфияЗарифовна, and ХусниддинКупайсиновичХомидов. "ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ." VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". 2018.